

INNOVATSIYALAR VA INVESTITSIYALAR NING GLOBAL IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali
Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Jumayev Erkinjon Akmal o'g'li

Ilmiy rahbar: Xasanov Axmadjon Shodiyarovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsiyalar va investitsiyalarning global iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib, investitsiyalar esa ushbu innovatsiyalarni amalga oshirish va kengaytirish uchun zaruriy resurslarni ta'minlaydi. Maqolada olimlarning fikrlari va so'nggi statistik ma'lumotlar asosida innovatsiyalar va investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o'mni yoritiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, investitsiyalar, global iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, texnologik taraqqiyot.

ASOSIY QISM

Innovatsiyalar va investitsiyalar bugungi global iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Innovatsiyalar yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalar yaratish orqali iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qiladi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Investitsiyalar esa ushbu innovatsiyalarni amalga oshirish, ularni joriy etish va kengaytirish uchun zarur bo'lgan resurslarni ta'minlaydi. Ushbu maqolada global miqyosda innovatsiyalar va investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ko'rib chiqiladi, shuningdek, so'nggi davr statistik ma'lumotlar va olimlarning fikrlari tahlil qilinadi.

Innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri

Innovatsiyalar iqtisodiy rivojlanishning katalizatori hisoblanadi. Ular nafaqat yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali iqtisodiy faoliyatni tezlashtiradi, balki jamiyatning barcha sohalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Juhon iqtisodiyoti tarixiga nazar tashlasak, har bir sanoat inqilobi yoki yirik texnologik yutuq iqtisodiy rivojlanishda tub burilish yasaganini ko'rish mumkin. Masalan, XX asrning o'rtalarida kompyuter texnologiyalarining rivoji global iqtisodiy o'sishni sezilarli darajada tezlashtirdi. XXI asrda esa sun'iy intellekt va raqamli transformatsiya iqtisodiy rivojlanishning bosh omiliga aylandi. Juhon iqtisodiy forumining ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot 2022-yilda global yalpi ichki mahsulotning 15 foizidan ortig'ini tashkil etdi va bu ko'rsatkich kelgusi yillarda yanada ortadi. Joseph Schumpeterning "ijodiy buzilish" nazariyasiga ko'ra, innovatsiyalar eski texnologiyalar va biznes modellarini yangilari bilan almashtiradi. Bu jarayon iqtisodiyotda yangi sohalar paydo

bo'lishi, yangi ish o'rnlari yaratilishi va mahsulotlarning narxini pasaytirishga olib keladi. Masalan, 2000-yillardan buyon internet texnologiyalari tufayli elektron tijorat sohasida yangi o'yinchilar paydo bo'ldi, shu jumladan Amazon va Alibaba kabi kompaniyalar global savdo tizimining asosiy qismiga aylandi. *6

Investitsiyalarning innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashdagi roli

Innovatsiyalar muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun ularga moliyaviy va moddiy qo'llab-quvvatlash zarur. Investitsiyalar aynan shu ehtiyojni qondiradi. Xususan, ilmiytadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga (R&D) yo'naltirilgan investitsiyalar innovatsiyalarni hayotga tadbiq qilishning muhim qismi hisoblanadi. 2022-yilda dunyo bo'yicha R&D xarajatlari 2,4 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichning katta qismi AQSh, Xitoy va Yevropa Ittifoqiga to'g'ri keladi. Xitoyning R&D sohasiga ajratgan mablag'i oxirgi 10 yilda 10 barobar oshib, 2022-yilda 456 milliard dollarni tashkil etdi. Xususan, Xitoy texnologik gigantlari Huawei va Tencent kompaniyalari R&D faoliyatiga eng ko'p mablag' yo'naltirgan korporatsiyalar sifatida tanilgan. Investitsiyalar nafaqat texnologiyalarni rivojlantirish, balki infratuzilmani modernizatsiya qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) ma'lumotlariga ko'ra, infratuzilmani rivojlantirishga kiritilgan investitsiyalar har bir dollar uchun 3-4 dollarlik iqtisodiy daromad keltirishi mumkin.

Innovatsiya va investitsiyalar o'tasidagi o'zaro bog'liqlik

Innovatsiyalar va investitsiyalar bir-birini to'ldiruvchi jarayonlardir. Ular iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Raqamli iqtisodiyot sohasidagi o'zgarishlar bu bog'liqlikni yaqqol ko'rsatadi. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyalari sohasida har bir yirik innovatsiya ulkan miqdordagi investitsiyalarni talab qiladi. Birgina Tesla kompaniyasi 2023-yilda avtonom transport tizimlarini rivojlantirish uchun 2 milliard dollar sarflagan. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, innovatsiyalarga qaratilgan investitsiyalar natijasida ishlab chiqarish samaradorligi 20-30 foizga oshishi mumkin. Shuningdek, yangi texnologiyalarni qo'llash natijasida global iqtisodiyot yiliga 2-3 foizga tezroq o'sishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston misolida innovatsiya va investitsiyalar

O'zbekiston ham innovatsiyalar va investitsiyalarga alohida e'tibor qaratmoqda. 2022-yilda Global innovatsion indeksga ko'ra, O'zbekiston 82-o'rinni egalladi va kelgusi yillarda ushbu ko'rsatkichni yaxshilash rejalashtirilgan. O'zbekistonda "Ilm, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi" dasturi doirasida startaplarni rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston hukumati 2023-yilda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha 8 milliard AQSh dollari hajmdagi loyihalarni amalga oshirgan. *5 Global iqtisodiy rivojlanish — bu dunyo mamlakatlarining iqtisodiy o'sish sur'atlari, ular orasidagi iqtisodiy hamkorlik va yangi texnologiyalarni joriy qilish jarayonlarini o'z ichiga oladigan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu rivojlanishda innovatsiyalar va investitsiyalar asosiy harakatlantiruvchi kuchlar sifatida alohida o'rin tutadi.

Innovatsiyalar texnologik rivojlanishni tezlashtirsa, investitsiyalar ushbu yangiliklarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy vositalarni ta'minlaydi. Ushbu maqolada innovatsiyalar va investitsiyalarning global iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi.

Innovatsiyalar va global iqtisodiy rivojlanish

Innovatsiyalar global iqtisodiy rivojlanishning strategik omili hisoblanadi. Ular yangi texnologiyalarni yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va jamiyat ehtiyojlariga mos yangi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Masalan, XX asrda sanoat inqiloblari natijasida dunyo iqtisodiyoti bir necha barobar tezlashdi. XXI asrga kelib esa raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt global iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqdi. Yaqinda Juhon Banki tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda innovatsion texnologiyalarni joriy qilgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'ati o'ttacha 3,5% ni tashkil qilgan, bu esa innovatsiyalar joriy qilinmagan mamlakatlarga qaraganda ikki barobar yuqori ko'rsatkichdir. Raqamli texnologiyalar va yashil energiyaga yo'naltirilgan innovatsiyalar bugungi kunda global iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Joseph Schumpeterning iqtisodiy nazariyasiga ko'ra, innovatsiyalar "ijodiy buzilish" jarayonini keltirib chiqaradi, ya'ni mavjud iqtisodiy tizimni yangilash va yanada samarali modellarni yaratishga olib keladi. Shu bois, innovatsiyalar nafaqat alohida mamlakatlar, balki butun dunyo iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Investitsiyalar va global iqtisodiy rivojlanish

Global iqtisodiy rivojlanish uchun moliyaviy resurslarning taqsimlanishi juda muhimdir. Investitsiyalar innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirish va joriy qilish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda global to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,58 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bu pandemiya davridan keyingi iqtisodiy tiklanishning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Investitsiyalar innovatsiyalarni rivojlantirishda katalizator rolini bajaradi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga yo'naltirilgan investitsiyalar (R&D) global iqtisodiyotni yangi darajaga olib chiqadi. Masalan, AQShning 2022-yilda ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga ajratgan mablag'i 720 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu mablag'larning katta qismi sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va yashil energiyaga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, global iqtisodiyotda rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiyalar yo'naltirish orqali ularning texnologik taraqqiyotini tezlashtirish va iqtisodiy o'sishini ta'minlash mumkin. Masalan, Xitoyning "Bir kamar — bir yo'l" tashabbusi orqali rivojlanayotgan davlatlarda infratuzilmani rivojlantirish uchun milliardlab dollar mablag' ajratilgan va bu loyihalar iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shmoqda. *4

Innovatsiyalar va investitsiyalar o'rtaqidagi bog'liqlik

Innovatsiyalar va investitsiyalar global iqtisodiy rivojlanishning ikki asosiy ustuni sifatida bir-birini to'ldiradi. Innovatsiyalarni joriy etish uchun investitsiyalar zarur bo'lsa,

investitsiyalar uchun istiqbolli innovatsiyalar mavjud bo‘lishi shart. Masalan, 2022-yilda Tesla kompaniyasi o‘zining avtonom avtomobilari va energiya saqlash tizimlarini rivojlantirish uchun 3,2 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritgan. Bu esa nafaqat kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshiladi, balki elektr transport vositalari global bozorini sezilarli darajada kengaytirdi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va yashil texnologiyalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar global iqtisodiyotni “yashil tiklanish” yo‘nalishida rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan “Yashil kelishuv” dasturi doirasida 2030-yilga kelib, innovatsion texnologiyalarga 1 trillion yevrodan ortiq mablag‘ yo‘naltirish rejalashtirilgan. Bu dastur energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish orqali Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshirishni maqsad qilgan. AQSh innovatsiyalar va investitsiyalar orqali global iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sifatida texnologiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida yetakchilik qiladi. Bu tarmoq o‘zining yuqori investitsiya hajmi, texnologik yangiliklari va jahon iqtisodiyotiga qo‘shayotgan ulkan hissasi bilan ajralib turadi.

Texnologiya sektori statistik ma'lumotlari

1. Global yetakchilik: AQShning texnologik bozori dunyoda eng yirigi hisoblanadi. CompTIA tashkiloti hisobotiga ko‘ra, 2023 yilda AQSh texnologik bozorining umumiyligi hajmi 1.8 trillion AQSh dollarini tashkil etgan, bu esa global texnologiya bozorining 33 foiziga teng.

2. Texnologik gigantlar va innovatsiyalar:

AQShning Apple, Microsoft, Google (Alphabet), Amazon kabi texnologik gigantlari global innovatsiyalar bozorida yetakchi o‘rnlarni egallab kelmoqda. 2022 yilda ushbu kompaniyalar tomonidan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar (R&D) uchun ajratilgan mablag‘:

Amazon – 76.7 milliard AQSh dollari

Alphabet (Google) – 39.5 milliard AQSh dollari

Microsoft – 26.9 milliard AQSh dollari

Apple – 27.7 milliard AQSh dollari

Bu kompaniyalar texnologiya va innovatsiyalar orqali yangi bozorlar yaratib, global iqtisodiy o‘sishga ulkan hissa qo‘shmoqda.

3. Sun’iy intellekt (AI) va avtomatlashdirish:

AQSh sun’iy intellekt bo‘yicha yetakchi davlat hisoblanadi. Stanford AI Index Report ma'lumotlariga ko‘ra, AQSh sun’iy intellektga qaratilgan investitsiyalarda birinchi o‘rinda turadi. 2023 yilda AQShda AI-ga qilingan investitsiyalar hajmi 59 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

4. Startaplar va innovatsion ekotizim:

AQShda Silikon vodiysi dunyoning eng yirik innovatsion markazlaridan biridir. Global Startup Ecosystem Report hisobotiga ko‘ra, 2023 yilda AQSh startaplar

bozorining umumiy qiymati 3 trillion AQSh dollaridan oshgan. Silikon vodiysida joylashgan startaplar global investitsiyalarni jalb qilishda yetakchilik qilmoqda.

4. Texnologiyaning iqtisodiy ta'siri:

AQSh texnologiya sektori 2023 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining (Yalm) 10.5 foizini tashkil qilgan.

5. Ushbu sektor 12 milliondan ortiq ishchi o'rinnarini yaratib, global mehnat bozorida muhim o'rincini tutadi. *4

XULOSA

Innovatsiyalar va investitsiyalar global iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rincini tutadi. Ularning birgalikdagi ta'siri iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, raqobatbardoshlikni oshirish va yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va yashil energiya sohasida innovatsiyalar va ularga yo'naltirilgan investitsiyalar global iqtisodiyotning yangi davrini boshlab bermoqda. O'zbekiston ham ushu tendensiyadan chetda qolmasdan, innovatsiyalar va investitsiyalarga oid strategiyalarni amalga oshirmoqda, bu esa mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda AQSH, Xitoy va Yevropa Ittifoqi davlatlari tajribalaridan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki AQShning texnologik bozori dunyoda eng yirigi hisoblanadi. CompTIA tashkiloti hisobotiga ko'ra, 2023 yilda AQSh texnologik bozorining umumiy hajmi 1.8 trillion AQSh dollarini tashkil etgan, bu esa global texnologiya bozorining 33 foiziga teng. Undan tashqari AQSH ning yirik Apple, Microsoft, Amazon kabi texnologik kompaniyalari global innovatsiyalar bozorida yetakchi o'rincini egallab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'aniyev, U. "Innovatsion rivojlanish strategiyalari." Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020.
2. Karimov, A. "Investitsiyalar iqtisodiy o'sish omili sifatida." Iqtisodiyot va moliya jurnali, №3, 2019.
3. Xolmatova, M. "Global iqtisodiyot va innovatsiyalar." Toshkent: Innovatsion iqtisodiyot instituti nashriyoti, 2021.
4. Jahon Banki rasmiysi: <https://www.worldbank.org>
5. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi sayti: <https://mininnovation.uz>
6. Yozef Shumpeter "Capitalism, Socialism, and Democracy" (1942).